




7,8-ma'ruza. Naryad va farmoyish berish. Qisqa muddatli va kechiktirib bo'lmaydigan ishlar.

Reja

I.	Elekt xavfsizligi va undan to'g'ri foydalanish qoidalari
II.	Naryad va farmoyish berish.
III.	Qisqa muddatli va kechiktirib bo'lmaydigan ishlar.
IV.	Brigada tarkibi.





I. Naryad va farmoyish berish.

Naryad ikki nusxada, telefon yoki radio orqali berilganda esa uch nusxada yoziladi.

- **Telefon yoki radio orqali berilganda naryad beruvchi bir nusxada yozadi. Naryad tekstini qabul qiluvchi shaxs esa, naryadni ikki nusxada telefon yoki radiogramma holida qabul qiladi va qaytarib tekshirgandan so‘ng naryad beruvchi imzosi o‘rniga uning ismi-sharifi, familiyasini yozib naryad matnini to‘g‘riligini o‘z imzosi bilan tasdiqlaydi.**
- **Ishlashga ijozat beruvchi vazifasini ham bajarishi tayinlangan hollarda naryad ishboshiga qanday usulda berilishidan qat’iy nazar, ikki nusxada to‘ldiriladi va naryadning bir nusxasi naryad beruvchida qoladi.**
- **Mahalliy sharoitga qarab (ya’ni dispetcherlik punkti joylashgan erni hisobga olib) naryadning bir nusxasi ish joyi tayyorlashga ruxsat beruvchi va ishlashga ijozat beruvchi xodimda (dispetcherda) qolishi mumkin.**

➤ Bir ish rahbariga beriladigan naryadlar sonini naryad beruvchi belgilaydi. Ishlarni ketma-ket bajarilishi va ishlashga ketma-ket ijozat berish uchun, ishlashga ijozat beruvchiga va ishboshiga (nazorat qiluvchiga) bir yo‘la bir nechta naryad va farmoyishlar berilishi mumkin.

➤ Naryadni ish boshlangan kundan boshlab 15 kalendar kunigacha bo‘lgan muddatga berish ruxsat etiladi.

➤ Naryadni 1 marta, uzaytirishga ruxsat berilgan kundan boshlab, 15 kalendar kun muddatigacha uzaytirish mumkin.

➤ Ish jarayonidagi tanaffuslarda naryad o‘z kuchini saqlab qoladi.

➤ Naryad muddatini naryad beruvchi yoki ushbu elektr uskunada naryad berish huquqiga ega bo‘lgan xodimgina uzaytirishi mumkin.

➤ Naryad muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi ruxsatnoma telefon, radio yoki chopar orqali ishlashga ijozat beruvchiga, ish rahbariga yoki ishboshchiga berilishi mumkin.

➤ Bunday hollarda ushbu xodim o‘z imzosi bilan naryad muddatini cho‘zgan xodimning ismi va familiyasini naryadga yozib qo‘yadi.

- Naryadlar ish butunlay tamom bo'lgandan so'ng 30 kun davomida saqlanishi kerak, keyin esa yo'q qilib yuborilishi mumkin.
- Farmoyish bir martagina qilinadigan ishga xos bo'lib, uning ta'sir muddati bajaruvchilar ish kunining uzunligi bilan belgilanadi.
- Farmoyish ishboshiga va ishlashga ijozat beruvchiga yoki ish joyini tayyorlashga ruxsat etuvchi va ishlashga ijozat beruvchi xodimga beriladi.
- Mahalliy navbatchisi bo'lmagan elektr uskunada ishlashga ijozat berishni hojati bo'lmagan hollarda formoyish to'g'ridan-to'g'ri ishboshiga berilishi mumkin.
- Farmoyish bilan olib borishga mo'ljallangan ish, naryad beruvchi xodim ixtiyoriga qarab, naryad bilan bajarilishi mumkin.
- Naryad va farmoyish bilan olib borilgan ishni hisobga olib borish tartibi 6- ilovada keltirilgan.

II. Qisqa muddatli va kechiktirib bo'lmaydigan ishlar.

Qisqa muddatli, uzog'i bilan 1 soatgacha davom etadigan ishlar farmoyish bilan ta'mirlash xodimi, navbatchi yoki tezkor-ta'mirlash xodimi nazoratida hamda navbatchining yoki tezkor-ta'mirlash xodimlarning o'zi bajarishiga ruxsat beriladi.

Bunday ishlarga quyidagilar kiradi:

- - kabel, sim, shinalarni elektr motor va boshqa uskunalardan bo'shatib ajratish yoki ulash;
- - taqsimlash uskunadagi releli himoya, avtomatika, telemexanika, aloqa, shu jumladan yuqori davr tezlikli himoya va aloqa filtrlari uskunalaridagi ishlar;
- - 0,4 kV kuchlanishli havo elektr tarmog'ini, hamda hamma kuchlanishli kabel elektr tarmog'ini ulash va bo'shatib ajratish;
- - fazirovka qilish;
- - kabel elektr tarmog'ini uzilgan yoki uzilmaganligini tekshirish;
- - transformatorlarda o'rnatilgan kuchlanishni oshirish va kamaytirish shaxobchalarini burash;

- - moy o'lchagich oynasini va ayrim yakka izolyatorlarni artish;
- - transformator moyini quyish va tekshirishga olish;
- - transformator moyini quritish va tozalash uchun o'rnatilgan asboblarni ulash yoki bo'shatib ajratish;
- - havo bilan ishlaydigan o'chirgichdagi manometrni almashtirish;
- - elektr uskunadagi tok o'tkazuvchi qismlarni qizishi va titrashini o'lchash;
- - elektr o'lchov ombirlari bilan o'lchash;
- - elektr uzatish tarmog'iga tushib qolgan begona narsalarni olib tashlash;
- - havo elektr uzatish tarmog'i simiga qulagan daraxt, shox-shabba va boshqalarni olib tashlash;
- - elektr uskunani dispetcherlik va texnologik boshqaruv vositasi, iste'molchini sifatli elektr energiya bilan ta'minlashga xavf soluvchi yoki shunday nosozliklar sodir bo'lganda ularni bartaraf qilish uchun kerak bo'lgan zarur ishlar;

➔ 4.1-bandda qayd etilgan ishlarni bajarish uchun ishchilar soni nazorat qiluvchi xodim bilan birgalikda 3 kishidan oshmasligi kerak.

➔ 1000 V kuchlanishdan yuqori elektr uskunada ishlaganda ish bajarayotgan yoki nazorat qiluvchi navbatchi yoki tezkor-ta'mirlash xodimning kattasi elektr xavfsizligi bo'yicha IV gruppaga, 1000 V kuchlanishgacha bo'lgan elektr uskunada ish bajarishda III gruppaga ega bo'lishi kerak. Brigadaning qolgan a'zolari III gruppaga ega bo'lishlari shart. Iste'molchi ulangan elektr uzatish tarmog'ida ishlanganda ishga iste'molchi xodimi ham jalb qilinishi mumkin.

➔ Ish boshlashdan oldin ochiq taqsimlovchi uskunalarda ish joyini arqon bilan o'rashdan tashqari ish joyini tayyorlashga oid barcha texnik tadbirlar amalga oshirilishi kerak. Bunday hollarda ochiq taqsimlovchi elektr uskunada ish joyini arqon bilan o'rash majburiy emas.

➔ 4.1-bandda qayd etilgan ishlarni bajarish 1 soatdan ko'p vaqt yoki 3 kishidan ortiq ishchi talab etsa, u holda ushbu ish naryad bilan bajarilishi kerak.

III. Brigada tarkibi.

Brigadadagi ishchilar soni va uning tarkibi, ularning elektr xavfsizligi bo'yicha gruppasini hisobga olgan holda ish bajarish sharoitiga hamda brigada a'zolari ustidan ishboshining nazorat qilaolish imkoniyatiga qarab belgilanadi.

Ishboshi rahbarlik qilayotgan brigada a'zosi II gruppaga ega bo'lishi kerak. Ish kuchlanish ostida bajariladigan bo'lsa III gruppaga bo'lishi kerak. Bunda ushbu Qoidaning 14.2.4-bandiga asosan havo elektr uzatish tarmog'ida bajariladigan ishlar mustasnodir. Bunday ishlarni elektr xavfsizligi bo'yicha IV gruppaga ega bo'lgan ishchi bajarishi zarur.

Elektr xavfsizligi bo'yicha III gruppaga ega bo'lgan har bir brigada a'zosiga I gruppaga ega bo'lgan bir ishchi qo'shilishi mumkin, lekin I gruppali brigada a'zolarining umumiy soni 3 kishidan oshmasligi kerak.

Ushbu Qoidada ko'zda tutilgan ayrim ishlarni farmoyish bilan bir ishchi (yakka o'zi) bajarishi mumkin.

➤ Navbatchi o'zidan yuqoridagi navbatchining ruxsati bilan naryadga kiritilmasdan, tezkor dispetcherlik jurnalida qayd qilib ta'mirlash brigadasida ishlashga jalb qilinishi mumkin.

➤ Brigada tarkibini o'zgartirish naryad beruvchi yoki ushbu elektr uskunada ishni bajarish uchun naryad berish huquqiga ega bo'lgan boshqa xodimga ruxsat etiladi. Brigada tarkibini o'zgartirish to'g'risidagi ko'rsatma telefon, radio yoki chopar orqali ishlashga ijozat beruvchiga, ish rahbariga yoki ishboshchiga berilishi mumkin. Ular o'z imzosi bilan ushbu o'zgartirish to'g'risida ko'rsatma bergan xodimning ism-sharifi va familiyasini naryadda yozib qo'yadi.

➤ Brigada tarkibini o'zgartirish jarayonida 4.4.1-banddagi talablarni buzilishiga yo'l qo'yimaslik kerak.

➤ Ishboshi brigada tarkibiga qo'shilgan yangi ishchilarga yo'riqnoma berishi kerak.

➤ Ish rahbarini yoki ishboshini almashtirilganda hamda brigada tarkibini yarmidan ko'proq qismi o'zgartiriladigan bo'lsa, naryad yangidan berilishi lozim.

IV. Sinov savollari.

- 1. Naryad necha nusxada yoziladi?
- 2. Naryadni necha kun muddatga berish ruxsat etiladi?
- 3. Naryadni necha marta va necha kun muddatga uzaytirish mumkin?
- 4. Naryad necha kun davomida saqlanishi kerak?
- 5. Qachon farmoyish beriladi?
- 6. Qanday ishlar qisqa muddatli va kechiktirib bo'lmaydigan ishlarga kiradi?
- 7. Brigada tarkibi.
- 8. Ish joyini tayyorlashga va ishlashga ijozat berishga kim ruxsat berish huquqiga ega?
- 9. Ish joyini tayyorlash.
- 10. Ish o'tkazish ustidan nazorat.